



ZAMONAVIY TA'LIM-HARBIY XIZMATCHILAR FARZANDLARINI  
BARKAMOL SHAXS SIFATIDA VOYAGA YETKAZISHNING  
MARKAZIY OMILI

**G'afurov Behruz Tolib o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Гафуров Бехруз Толиб угли**

независимого исследователя Ферганского государственного университета

**Gafurov Behruz Talib ogli**

an independent researcher of Fergana State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14045793>

Zamonaviy ta'lim-harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishning markaziy omili, xususan, axloqiy tarbiya va ta'lim tizimining ahamiyati masalasiga ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yondashganda, bu jarayon jamiyatning barqarorligi, davlatning kelajak avlodni yetishtirishga qo'ygan maqsadlari va ma'naviy tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Harbiy xizmatchilar farzandlari ma'lum bir turmush sharoitida o'sadi va bu sharoitlar ularning shaxsiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, mamlakatda ta'lim tizimining o'rnini va undagi asosiy vazifalar nafaqat intellektual jihatdan rivojlangan, balki ma'naviy jihatdan yetuk shaxslarni tarbiyalash bilan belgilanishi lozimdir.

O'zbekiston ta'lim tizimida axloqiy tarbiyaning ahamiyati ortib borayotganligini ko'rish mumkin, chunki axloqiy madaniyat nafaqat shaxsiy fazilatlar sifatida, balki ijtimoiy munosabatlarning uzviy qismi sifatida shakllanadi. Harbiy xizmatchilar farzandlari tarbiyasiga e'tibor qaratilganda, axloqiy tarbiya ularning jismoniy, aqliy va axloqiy jihatdan rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Harbiy oilalardagi bolalar ko'pincha turli xil ijtimoiy-madaniy sharoitlarda o'sadi va ularga tarbiya berish jarayonida axloqiy normalarga ko'proq e'tibor qaratish zarurati tug'iladi. Bu bolalarga tarbiyaviy jarayonlarda intizom, jasorat, mehnatsevarlik, milliy va xalqaro vatanparvarlik singari fazilatlarni singdirish lozim. Shu bilan birga, bu bolalarning shaxsiy o'ziga xosliklari, mehnatga bo'lgan munosabatlari va axloqiy qadriyatlari ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida shakllanadi. "Axloq – bu avvalo, insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani" dir.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi doirasida ta'lim sohasida axloqiy tarbiya va ma'naviy rivojlanishga alohida e'tibor berilmoqda. Prezident tomonidan qabul qilingan farmonlar axloqiy tarbiyani milliy darajada rivojlantirishni ko'zda tutgan bo'lib, bu jarayonda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida





“Yangi O‘zbekistonda” axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, o‘quvchilarning ma’naviy ongi va madaniyatini oshirish vazifasi dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Shunday qilib, zamonaviy ta’lim tizimi doirasida harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish ijtimoiy-falsafiy jihatdan muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda ta’lim va tarbiya integratsiyasi muhim bo‘lib, o‘quvchilarga nafaqat intellektual va jismoniy rivojlanish imkoniyatlari berilishi, balki ularga milliy va axloqiy qadriyatlar singdirilib, kelajakda jamiyatga foydali bo‘lishlariga yordam berish ko‘zda tutilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Axloq-kishilarning har bir jamiyatga xos xulq normalari majmui, adab, etika” deb ta’rif berilgan bo‘lsa, falsafa lug‘atida “Axloq (arabcha xulq so‘zining ko‘pligi) – kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos tartib, qoidalari yig‘indisi”, deyilgan.

Zamonaviy ta’limning harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan kengroq talqini, jamiyatning umumiy rivojlanish maqsadlari va davlatning milliy manfaatlariga mos keluvchi tizimli yondashuv bilan bog‘liqdir. Ta’lim jarayoni harbiy xizmatchilar farzandlariga nafaqat bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish, balki ularni kuchli shaxslar sifatida shakllantirish uchun strategik ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda milliy istiqlol mafkurasi, madaniyat va tarbiyaviy qadriyatlar o‘quvchilarning ongiga chuqur singdirilib, ularda milliy g‘urur, vatanga bo‘lgan sevgi va axloqiy qadriyatlar shakllantiriladi.

Ta’limning dastlabki shakllari insoniyat tarixi davomida jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy tuzumi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ilgari ta’lim faqatgina mehnat va kundalik turmush faoliyatiga mos ravishda yakka tartibda amalga oshirilgan bo‘lsa, zamonaviy ta’lim jarayoni guruhli o‘qitish, texnologiyalardan foydalanish va pedagogik yondashuvlarning rivojlanishi bilan murakkablashgan. Al-Forobiyning ilmiy qarashlaridan tortib, Yan Amon Komenskiy kabi buyuk pedagoglarning sinf-dars tizimi haqidagi ta’limotlari zamonaviy ta’limni tashkil etishning asosiy metodologiyasini yaratgan.

Bugungi kunda, ta’limda pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish, xususan, interaktiv ta’lim, kompyuter tizimlari va multimedia vositalari yordamida o‘quvchilarning bilim olish jarayoni yanada samarali va oson kechmoqda. Bu jarayon ayniqsa harbiy xizmatchilar farzandlari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ularning ijtimoiy-psixologik ehtiyojlari va maxsus tarbiyaviy talablariga moslashgan uslublar talab etiladi. Interaktiv ta’lim o‘quvchilarni bilim olish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, kompyuter tizimlari esa bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.





Multimedia vositalaridan foydalanish orqali esa ta'lim yanada qiziqarli va jonli bo'ladi, bu esa o'quvchilarning e'tiborini uzoqroq saqlashga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu jarayonda tanqidiy fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, modellashtirish kabi innovatsion uslublar o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Harbiy xizmatchilar farzandlarining barkamol shaxs sifatida shakllanishida ushbu innovatsion pedagogik yondashuvlar, ularni milliy va xalqaro talablarga mos tarzda yetishtirish uchun zarurdir.

Hozirgi globallashuv davrida ta'lim jarayonini yangicha tashkil etish zaruriyati kuchayib bormoqda. Mamlakatimizda ta'lim mazmunini boyitish va zamonaviy ta'lim shakllaridan foydalanish milliy istiqloq mafkurasi, madaniy qadriyatlar va zamon talablariga javob beradigan shaxslarni yetishtirish uchun muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar farzandlari uchun bu jarayon yanada murakkabdir, chunki ular oilaviy hayotdagi o'ziga xosliklar va ko'chib yurish, ijtimoiy-psixologik disorientatsiya kabi qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shuning uchun ta'lim va tarbiya jarayonida ularga ko'proq e'tibor va pedagogik yondashuv zarur. Zamonaviy ta'limning harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda markaziy o'rni, o'quvchilarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda innovatsion yondashuvlar va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi. Bu jarayon nafaqat bilim olish, balki shaxsiy va jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan barcha jihatlarni qamrab oluvchi ko'p qirrali ta'lim tizimi sifatida o'z ahamiyatini ko'rsatmoqda.

#### **References:**

1. Брюно Ж. и др. Одаренные дети: психоло-педагогические исследования и практика// Психологический журнал. – 1995. - №4. – С.73.
2. Вединеева Н.А. Научно-исследовательские проекты как средство самореализации старшеклассника: Дис. канд. пед. наук. – Оренбург, 2006. – 221 с.
3. Вихорева О.А. Развитие самостоятельности старших подростков в процессе исследовательской деятельности: Дис... канд. пед. наук. – Челябинск, 2003. – 163 с.
4. Войтенко Т. Обучение через саморазвитие и самовоспитание. // Ж. Директор школе. – М., 2000. - №3. – С.78.





5. Воробев, В.В. Поисково-исследовательские задачи как средство развития творческого мышления учащихся математических классов: Дис. канд. пед. наук. – Омск, 2005. – 255 с.
6. Виготский Л.С. Педагогическая психологий. – М.: АСТ, 2005. – 671 с.
7. Габдулхаков В.Ф. Одаренност и ее развитие в условиях взаимодействия общеобразовательной школы и университета. Учебно-метод. пособие. / Казан: РИТС «Школа», 2012. – 174 с.
8. Гозиев Э.Г. Психологические основы развитие самоуправления учебной деятельностью у школьников и студентов. Автореф. дис. док.псих.наук. – Т., 1991. – 38 с

